
Qo'sha qarish baxti nasib etganlar

👉 Rishton tumanida "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz" g'oya asosida Vatanimiz mustaqilligining 31 yilligiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuv, muloqotlar, bayram dasturlari bo'lib o'tmoqda.

👉 Bayram arafasida yoshi ulug' keksalar, nuroniylarni qo'llab-quvvatlash, ularning ibrat maktabini keng targ'ib etish maqsadida ham xayrli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri "Qo'sha qarish saodati" mavzusidagi ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar tuman hokimligi, tuman Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi va Nuroniylar jamoatchilik kengashi hamda mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi tomonidan joylarda ko'tarinki kayfiyatda tashkillanmoqda.

👉 Ezgu loyiha doirasida tuman hokimi Sufhonjon Soliev, tuman prokurori Rustam Madaliev, tuman IIB boshlig'i Hojiakbar Toshpo'latov va tuman DSI boshlig'i Dilshod Rahimov hamrohligida tumanning "Qoshqayron" mahallasida istiqomat qiladigan ana shunday ibratli oila sohiblari - Maxsutali ota Ahmadjonov va u kishining umr yo'ldoshi Bisokina Ahmadjonova xonadonida bo'ldi.

👉 Oila azal-azaldan muqaddas qo'rg'on sanalgan. Inson oilada dunyoga keladi, ulg'ayib kamol topadi. Eng avvalo oila mustahkam, tinch bo'lsa jamiyat barqaror bo'ladi. Unib o'sayotgan farzandlar har tomonlama barkamol bo'lishiga imkon yaratiladi.

👉 Rishton tumanining "Qoshqayron" mahallasida istiqomat qiluvchi Maxsutali ota Ahmadjonov va u kishining umr yo'ldoshi Bisokina Ahmadjonovalar 66 yildirki tinch va totuv yashab qo'sha qariganlardan. Ular bugun nafaqat mahallada, balki tumanimizning namunali oilalari sirasidan joy olgan.

👉 38 yil davomida tumandagi 11-umumiy o'rta ta'lim maktabida mehnat qilgan, piri badavlat otaxon va uning turmush o'rtog'i bugun 8 nafar farzand, 25 nabira va 25 chevvara izzat-ikromida baxtli hayot kechirib, keksalik gashtini surmoqdalar.

👉 Maxsutali ota va Bisokina ayalar ozod va obod Vatanimizdagi beqiyos o'zgarishlarni butun vujudi bilan his etib, har qadamda farovon turmushga shukronalar aytib yashayotgan keksalardan.

👉 Tadbirda so'zga chiqqan tuman hokimi bu nuroniylarimizning ibratga to'la hayoti yoshlarimiz uchun maktab vazifasini o'tashini aytib, bu kabi qo'sha qarish baxtiga muyassar bo'lgan oilalarni aholiga namuna qilib ko'rsatish lozimligini ta'kidladi.

👉 Yo'qlov davomida tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi rahbari o'rinbosari T.Abdurahmonov va boshqa rahbarlar xonadon sohiblariga ana shunday uzoq yillik ibratli faoliyati va turmushi uchun minnatdorchilik bildirib, tuman hokimligining tashakkurnomasi va esdalik sovg'alarini topshirdi.

👉 Uchrashuv davomida otaxon va onaxon o'z xayotiy tajribalari, erishgan muvaffaqiyatlari, saodatli oila sirlari haqida barchaga so'zlab berishdi. Nuroniylarimizning oila tinchligi, totuvligi, qo'sha qarish sirlariga oid hikoyalari yoshlar uchun hayot maktabi vazifasini o'tashi tayin.

👉 Ulug' ayyom arafasida oilalar, keksalarni e'zozlash, ularning ibratli turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar mahallalarda davom etmoqda.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-08-20 13:06:51